Farg‘onaazot aksiyadorlik jamiyati

fargonaazot_uz | www.azot.uz | fargonaazot.uz | AO Farg‘onaazot | info@azot.uz | t.me/fargona_azot

Ijtimoiy-iqtisodiy gazeta. Gazeta 1979-yil yanvar oyidan chiqa boshlagan.

# Kimyogar

12-son (1724)
2023-yil,
28-DEKABR.


2024



## ASSALOMU ALAYKUM, HURMATLI HAMKASBLAR, QADRLI ISHCHI-XODIMLAR!

Sizlarni, ko‘pmillatli korxonamiz ishchi-xodimlarini kirib kelayotgan **yangi 2024-yil** bilan chin qalbimdan samimiy tabriklayman. O‘ylaymanki, kirib kelayotgan 2024-yilda Sizlar bilan birgalikda ulkan muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritib, barcha ko‘zlagan maqsadlarimizga erishamiz.

Ta’kidlash lozimki, 2023-yilda halol va mashaqqatli mehnatimiz bilan korxonamiz taraqqiyoti yo‘lida ulkan marralarni zabt etdik. 2023-yilda **2 trillion 203 milliard** so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, o‘sish sur’ati **108,9 foizni** tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi **4,9 foizga** kamaytirilib, **25,9 mln.** metr kub tabiiy gaz va **15,8 mln. kVt** soat elektr energiyasi iqtisod qilindi. Eksport hajmi **65.3 mln.** dollarga bajarilib 2022-yilga nisbatan ancha yuqori darajada, **123%** ga yetkazildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2023-yil 27-iyuldagi** “Farg‘onaazot” aksiyadorlik jamiyatida mavjud quvvatlardan samarali foydalanish hamda ichki va tashqi bozorda talab yuqori bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-242-son qarorida belgilangan topshiriqlarni bajarilishini ta’minlash maqsadida, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hamda **“Indorama Corporation Pte Ltd”** kompaniyasi o‘rtalarida imzolangan investitsiya bitimi rasmiylashtirildi. Ushbu bitimga asosan “Indorama Corporation Pte Ltd” kompaniyasi investitsion majburiyat sifatida korxonamizga **5 yil** mobaynida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni kiritishi belgilangan. Aytib o‘tish joizki, bularning barchasi zamirida korxonamizni hozirgi zamon talablariga xos modernizatsiyalar olib kirish, mahsulotlarimiz mavqeini mamlakatimiz va chet davlatlari bozorlarida xaridorgirligini yanada oshirish hamda xodimlar ishlash darajasini yaxshilashdek ulug‘ maqsadlar yotibdi.

Hurmatli do‘stlar, 2023-yilda ishlab chiqarish bo‘yicha ham talaygina ishlar amal oshirildi. Ulardan Ammiak ishlab chiqarish sexidagi havo kompressorining texnologik bog‘lashini o‘zgartirish hisobiga yiliga **3,5 mln.** kub tabiiy gazni iqtisod qilinishiga, ishlab chiqarish quvvatini kunlik **1456 tonna**dan **1524 tonna**ga ko‘tarilishiga va **3,5 mln kVt.** soat elektr energiyasini iqtisod qilinishiga erishilganligini sanab o‘tsak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shu o‘rinda, Mochevina ishlab chiqarish sexiga qo‘shimcha texnologik qurilmalar o‘rnatish hisobiga yiliga **1275 tonna** ammiakni iqtisod qilish bilan birga **2142 tonna** qo‘shimcha mahsulot olindi.

Ekologiya yo‘nalishi bo‘yicha oqova suvlarini qayta ishlash jarayoniga yo‘naltirish hisobiga **221,6 ming $m^3$** toza suv iqtisod qilindi. Albatta bularning barchasiga Siz, zahmatkash xodimlar mehnatlari bilan erishganligimizni aytib o‘tmoqchiman. Bular uchun Sizlarga o‘z minnatdorchiligimni biladirib o‘taman.

**Muhtaram kasbdoshlar!** Kirib kelayotgan 2024-yilda jamiyatimizda amalga oshirish uchun oldimizga ulkan maqsadlar, vazifalar qo‘yilib, samarali ishlar rejalashtirdik. Bulardan kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini kamida **127,1 foizga** oshirish va **2 trillion 925 milliard** so‘mga yetkazish, ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxini **11,2 foizga** kamaytirish, eksport hajmini **78.5 mln.** dollarga yetkazish bu bilan 2023-yilga nisbatan kamida **120 foizga** oshirish rejalashtirilgan.

2024-yil mobaynida “Indorama Corporation Pte Ltd” tomonidan korxonamizga investitsiyalar kiritilishi, korxonamizda yuqori texnologiyali, xavfsiz va raqobatbardosh ishlab chiqarishlarni tashkil etish, innovatsion va yuqori texnik sifati bilan ajralib turadigan yetakchi korxona va litsenziar kompaniyalar bilan hamkorlik qilish orqali mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, hosil bo‘ladigan chiqindilar miqdorini kamaytirish, yangi turdagi import o‘rnini bosuvchi, jahon bozorida xaridorgir, eksportbop maxsulotlarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish uchun yo‘naltirilishi kabi yuksak maqsadlar reja qilingan. Shuningdek, ijtimoiy soha, davlat tilimiz mavqeini oshirish, ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradarligini yanada yuqori cho‘qqiga ko‘tarish borasida amaliy ishlar bajarilishi ko‘zda tutilgan.

**HURMATLI “FARG‘ONAAZOT” AKSIYADORLIK JAMIYATI ISHCHI-XODIMLARI!**

***Sizlarni kirib kelayotgan yangi yil bilan yana bir bor muborakbod etaman. Barchangizga sihat-salomatlik, xonadonlaringizga fayzu baraka, oilaviy baxtu saodat tilayman.***

***Yangi yil barchamizga yangi zafarlar, mustahkam sog‘liq, oilalarimizga xotirjamlik, xalqimizga barqarorlik olib kelsin. Yangilanayotgan O‘zbekistonimiz bundanda yashnayversin!***

**YANGI YILINGIZ MUBORAK BO‘LSIN!**

**Dilshod MANNONOV,**
**“Indorama - Farg‘onaazot” AJ boshqaruvi raisi.**




## KONSTITUTSIYA — XALQCHILLIK DAVLAT, BARQAROR TARAQQIYOT VA FAROVON HAYOT ASOSI

Mamlakatimiz bo‘ylab Konstitutsiyamizning 31 yilligi “Farg‘onaazot” AJda katta tantana qilib nishonlandi.

Bayram dasturini korxona boshqaruvi raisi Dilshod Mannonov hamda Bosh moliyaviy direktor Mr. Shaliesh Deokumar o‘zlarining O‘zbekiston xalqiga va jamiyat xodimlariga yo‘llagan tabriklari bilan ochib berdilar.

— Mana bugun biz Sizlar bilan Bosh Qomusimizning 31 yilligini nishonlamoqdamiz. Bugungi katta bayram tantanasi mamlakatimiz bo‘ylab “Konstitutsiya - xalqchillik davlat, barqaror taraqqiyot va farovon hayot asosi” shiori ostida o‘tkazilmoqda. Haqiqatdan ham Konstitutsiyasi kuchli, qonunlari ustivor bo‘lgan davlat - qudratli, xalqi osoyishta bo‘ladi. Xalq osoyishtaligi esa barqaror hukumat tuzishning asosiy tamoyildir.

Prezidentimiz xalqimiz, fuqarolarimiz huquq va erkinliklarini kengaytirish maqsadida joriy yilning 30- aprel sanasida o‘tkazilgan Referendumda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahririni qabul qildi. Mazkur qabul qilingan Konstitutsiyada “Inson qadri, xalq manfaati” o‘chmas qilib muhrlab qo‘yildi. “Avval – inson, keyin – jamiyat va davlat” degan g‘oyani Konstitutsiyamiz va qonunlarimizga ham, kundalik hayotimizga ham chuqur singdirib qo‘yildi – dedi o‘z nutqida boshqaruv raisi.

Tabriklardan so‘ng, korxonada Konstitutsiyamiz bayrami munosabati bilan o‘tkazilgan “Zakovat Quiz” intellektual o‘yini hamda “Biz bir bo‘lsak-yagona kuchmiz, birlashsak - Vatanmiz” shiori ostida jamiyat tarkibiy bo‘linmalarida o‘tkazilgan “Ma’naviyat” marafonining “Ma’naviyat bo‘yicha yetakchi sex” ko‘rik-tanlovi g‘oliblari korxona rahbariyati tomonidan pul mukofotlari, diplomlar va sertifikatlar bilan taqdirlandilar.

Bayram kechasini O‘zbekiston Davlat filarmoniyasi Farg‘ona hududiy bo‘linmasining xushovoz xonandalari qo‘shiqlari, raqs ansambllarining bir-biridan go‘zal raqslari hamda so‘z ustasi va qiziqchi Abdurahmon Siddiqovning hazil-mutoyibalari bezadi. Farg‘ona Politexika talabalarining “A’lo kayfiyat” QVZ guruhi chiqishlari barchaga bayramona ruh bag‘ishladi.

**E’zozxon ABDULLAYEVA.**

## “MA’NAVIYAT” MARAFONI:

### “MA’NAVIYAT BO‘YICHA YETAKCHI SEX” YO‘NALISHI G‘OLIBLARI TAQDIRLANDI





**Dekabr oyining ikkinchi yarmida mamlakatimiz bo‘ylab o‘tkazilgan “Biz bir bo‘lsak-yagona kuchmiz, birlashsak - Vatanmiz” shiori ostidagi “Ma’naviyat” marafoni korxonada ham o‘tkazilishiga start berilgan edi.**





Korxonada o‘tkazilgan “Ma’naviyat” marafoni tasdiqlangan nizomga asosan 3 yo‘nalishda, ya’ni, “Yashil kelajak”, “Ma’naviyat bo‘yicha yetakchi sex” hamda “Inson qadri” yo‘nalishlarda o‘tkazilib borildi. Marafon doirasidagi “Ma’naviyat bo‘yicha yetakchi sex” yo‘nalishi korxonamizning tarkibiy bo‘linmalarida bo‘lib o‘tdi.

Nizomga asosan barcha sexlarda ma’naviyat bo‘yicha olib borilayotgan ishlar, ma’naviyat xonalarini zamonaviy jihozlanganligi, ulardagi gazeta, kitoblar, ma’naviyat burchaklari, xodimlar bilan ma’naviyat yetakchilari hamda sex boshliqlarini qay darajada ishlashi tuzilgan ishchi guruh tomonidan birin-ketin ko‘zdan kechirilib, baholanib borildi.

“Ma’naviyat bo‘yicha yetakchi sex” yo‘nalishida ishtirok etishga ro‘yxat topshirgan sexlarga tashrif uyushtirilib, g‘oliblar aniqlab olindi. “Ma’naviyat bo‘yicha yetakchi sex” ko‘rik-tanlovi natijalariga ko‘ra, 1- o‘rin Jihozlarni markazlashtirilgan ta’mirlash sexiga, 2-o‘rin Mochevina ishlab chiqarish sexiga va 3-o‘rin Mexanik ta’mirlash sexiga nasib etdi. Barcha sovrindorlar korxonada Konstitutsiyamiz korxona rahbariyati tomonidan pul mukofotlari, diplomlar va sertifikatlar bilan taqdirlandilar.

**O‘z muxbirimiz.**




# "KIMYO ATAMALARINING IZOHLI LUG'ATI" KITOBI TAQDIMOTI BO'LIB O'TDI

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son Farmoni ijrosi bo'yicha "Kimyo atamalarining izohli lug'ati"ni yaratish va nashr etish alohida vazifa sifatida belgilangan.**




"O'zkimyosanoat" AJda "Kimyo atamalarining izohli lug'ati" kitobining taqdimot marosimi bo'ldi. Marosimda "O'zkimyosanoat" AJ xodimlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasinining Davlat tilini rivojlantirish departamenti, O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malakasini oshirish markazi vakillari, vazirliklar va idoralar, tarmoq korxonalari rahbarlarining davlat tili bo'yicha maslahatchilari, tilshunos-olimlar ishtirok etishdi.

Tadbirda so'zga chiqqanlar, mamlakatimiz kimyo ilm-fani va sanoati tarixida ilk bor o'zbek tilida tayyorlangan va nashr etilgan lug'at taqdimoti bilan tabriklashdi. "Kimyo atamalarining izohli lug'ati"ni yaratishda ishtirok etgan barcha tilshunos-olimlar, professorlarga minnatdorchilik izhor etildi.

Ma'lumot o'rnida aytish lozimki, "Kimyo atamalarining izohli lug'ati" 2023-yili G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan 3000 nusxada chop etilgan. Lug'atda noorganik, fizik, analitik va biokimyo, kimyoviy texnologiyaning asosiy jarayonlari va qurilmalari bo'yicha 4123 mingga yaqin eng ko'p ishlatiladigan o'zbek, ingliz va rus tillaridagi qisqacha izohi keltirilgan. Mazkur lug'at tadqiqotchilar, texnologlar, tarjimonlar, o'qituvchilar, doktorantlar, kimyo fakultetlari va universiteti talabalari uchun mo'ljallangan.

Kitob "O'zkimyosanoat" AJ soha mutaxassislari bilan hamkorlikda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi hamda Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti olimlari tomonidan tayyorlangan.

**"O'zkimyosanoat"
AJ Matbuot xizmati.**



# "ZO'RAVONLIKKA QARSHI 16 KUN" DOIRASIDA SEMINAR TASHKIL ETILDI

**Ta'kidlash lozimki, "Farg'onaazot" AJ rahbariyati ayollarga nisbatan zo'ravonliklarni oldini olish, ularni jamiyat hayotida foal ishtirokini ta'minlash, gender tenglik, oilalarda tinchlik va xotirjamlik kabi masalalariga jiddiy e'tibor qaratib keladi.**

Shu munosabat bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan "25-noyabr - Xalqaro ayollarga nisbatan zo'ravonlikka barham berish kuni" munosabati bilan mamlakatimizda e'lon qilingan "Zo'ravonlikka qarshi 16 kun" doirasida korxonada "Zo'ravonliksiz oila-farovon hayot sari", "Biz zo'ravonlikka qarshimiz" mavzularini o'z ichiga olgan seminar tashkil etildi.

Seminarda jamiyat tarkibiy bo'linmalari xotin-qizlar, ma'naviyat va yoshlar yetakchilari ishtirok etdilar. Shu o'rinda, soha mutaxassislari Farg'ona viloyati reabilitatsiya va moslashtirish bo'limi boshlig'i Jamila Axmedova, Farg'ona shahar Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi boshqarmasining Xotin - qizlar masalalari bo'yicha katta inspektor, podpolkovnigi - Dilorom Abdullayeva hamda Farg'ona viloyati reabilitatsiya va moslashtirish bo'limi mutaxassisi Dilorom Nazarovalar taklif etildilar.

Seminarda mavzuga oid barcha masalalar to'g'risida so'z yuritildi, videoroliklar qo'yib ko'rsatildi. Seminar so'nggida ishchi-xodimlar o'zlarining savollari bilan soha mutaxassislariga yuzlandilar.

**O'z muxbirimiz.**



**Bilib olish zarur**

# 2024-YIL 1-YANVARDAN BOSHLAB O'ZBEKISTON QONUNCHILIGIDA NIMALAR O'ZGARADI?

**2024-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekiston qonunchiligida ro'y beradigan ayrim o'zgarishlarni fuqarolarimiz diqqatiga havola etamiz.**

**Bolalar uchun to'yintirilgan non.** 2024- yil 1-yanvardan boshlab davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga oqsil, vitamin va minerallar bilan boyitilgan sut, yod bilan to'yintirilgan non mahsulotlari berilishi yo'lga qo'yiladi. Bu haqda prezidentning 2023-yil 11- sentabrdagi tegishli qarorida keltirib o'tilgan.

Hujjatga ko'ra, kelgusi yil boshidan Xorazm viloyatining Qo'shko'pir va Xonqa tumanlarida eksperiment tariqasida barcha boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim planshetlari bilan ta'minlanadi, mazkur tajriba keyinchalik respublikaning barcha hududlarida bosqichma-bosqich joriy etiladi.

Qarorda 1-yanvardan onkogematologik kasalliklarga chalingan bolalar uchun Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazi hamda Bolalar milliy tibbiyot markazida gemotopoetik suyak ko'migi o'zak hujayralari transplantatsiyasi amaliyoti joriy etilishi, virusli gepatitning "S" turi bilan kasallangan bemorlarni hamda gemotopoetik suyak ko'migi o'zak hujayralari transplantatsiyasi muolajasiga muhtoj onkologik kasalliklarga chalingan bolalarni to'liq davlat budjeti mablag'lari hisobidan davolash yo'lga qo'yilishi ham nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, mazkur qaror bilan 2024- yil 1-yanvardan boshlab og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarni qayta kasbga tayyorlash xarajatlarini davlat tomonidan qoplab berish tartibi, shuningdek, bosqichma-bosqich barcha shahar va tumanlarda «Mahalla budjeti» tizimi joriy etiladi.

**Pensiyaga chiqishda qulaylik.** Prezidentning 2023-yil 31-oktabrdagi "Aholiga pensiya tayinlash bo'yicha ko'rsatiladigan davlat xizmatlari sifatini yanada oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan 2024- yil 1-yanvardan boshlab fuqarolarga davlat pensiyalarini tayinlash uchun amaldagi tartibga qo'shimcha ravishda ularning xohishiga ko'ra Davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ham murojaat qilish huquqi berilmoqda.

Fuqarolarga davlat pensiyalari tayinlanganidan so'ng ularning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'larini Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoki AT "Xalq banki"ning mobil ilovasi orqali olish imkoniyati yaratiladi. Bunda, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlari tomonidan shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'larni olish huquqini beruvchi sertifikat berish tartibi bekor qilinadi.

**Allergik bemorlarga bepul dori.** Prezidentning tegishli qaroriga ko'ra, 2024-yil 1-yanvardan allergik va immunologik kasalliklarni erta aniqlash hamda ularning oldini olish maqsadida allergik va immunologik kasalliklarga chalingan "Ijtimoiy himoya yagona reestri"da bo'lgan bemorlarni ingalyatsion glyukokortikosteroid dori vositalari bilan bepul ta'minlash tizimi joriy etiladi.

Qaror bilan Sog'liqni saqlash vazirligiga 2024-yildan boshlab allergik kasalliklar (shu jumladan mavsumiy allergiya) ko'rsatkichlari yuqori hududlarda yiliga kamida bir marta ommaviy va selektiv skrining tekshiruvlarini o'tkazish, aniqlangan allergik va ikkilamchi immunitet tanqisligi kasalliklari mavjud bemorlarning allergologlar tomonidan tizimli kuzatuvi va individual sog'lomlashtirish ishlarini tashkillashtirish, hududlarda allergologiya va klinik immunologiya yo'nalishida yuqori texnologik tashxislash va davolash amaliyotlari turlarini bosqichma-bosqich 10 turdan 20 turgacha oshirish choralarini ko'rish topshirilgan.

Shuningdek, mazkur hujjatda 2024- yil 1-yanvardan Respublika ilmiy-ixtisoslashtirilgan allergologiya markazini 140 o'rin fondidan iborat bo'lgan Respublika ixtisoslashtirilgan allergologiya va klinik immunologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi etib qayta tashkil qilish nazarda tutilgan.

**Maktab direktorlari uchun sertifikatsiya.** Prezidentning 2023-yil 26 -maydagi tegishli farmoni bilan 2024-yil 1-yanvardan davlat maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlariga malaka toifasini berishning yangi tartibi joriy qilinadi.

**Bunda:**

• malaka toifasini olish bo'yicha sinovlar bir yilda kamida bir marotaba ikki bosqichda o'tkaziladi hamda birinchi bosqichda talabgorning mutaxassislik fani va kasb standarti bo'yicha bilim darajasi, ikkinchi bosqichda — pedagogik mahorati baholanadi;

• malaka toifasi berishning yangi tartibi joriy qilinguniga qadar malaka toifasini olish bo'yicha sinovlarni o'tkazishga moratoriy joriy etiladi;

• moratoriy davomida pedagog kadrlar navbatdagi malaka toifasini olish sinovlariga jalb etilmaydi hamda ularning malaka toifasini tasdiqlovchi sertifikatning amal qilish muddati navbatdagi sinovlarga jalb qilinguniga qadar avtomatik ravishda uzaytiriladi.

Shuningdek, kelgusi yil boshidan umumiy o'rta ta'lim muassasalarining pedagogik kasblariga birinchi marta ishga qabul qilinayotgan talabgorlarni kasbiy sertifikatlash tizimi joriy etiladi. Bunda 2023/2024-o'quv yilidan boshlab pedagogik kasblarga birinchi marta ishga qabul qilinadigan oliy ma'lumotli talabgorlar stajor-o'qituvchi sifatida faoliyat yuritadi va ular ishga qabul qilingan vaqtdan boshlab bir yil muddat davomida kasbiy sertifikatga ega bo'lishi talab etiladi hamda stajor-o'qituvchilarga ular kasbiy sertifikat olguniga qadar oliy ma'lumotli (toifasiz) o'qituvchining bazaviy tarif stavkasi qo'llanadi.

Hujjatda 1-yanvardan boshlab umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlarini har besh yilda bir marotaba kasbiy sertifikatsiyalash tizimini joriy etish ko'zda tutilmoqda. Sertifikatsiyadan o'ta olmagan direktorlar belgilangan tartibda lavozimidan ozod qilinadi.

**2024-yil 1-yanvardan boshlab boshqa o'zgarishlar:**

• vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqalari va boshqa tibbiy ma'lumotnomalarni qog'oz shaklda talab qilish taqiqlanadi;

• ko'p kvartirali uylardagi ko'chmas mulk bilan bog'liq bitimlarni tasdiqlash notariuslar tomonidan Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining axborot tizimi orqali tegishli mulkdorning majburiy badallar yoki to'lovlar bo'yicha qarzdorligi mavjud emasligi tekshirilgandan keyin amalga oshiriladi;

• davlat xizmatlari markazlari va ularning filiallarida ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko'rsatishga ixtisoslashgan "Ijtimoiy xizmat darchalari" faoliyati to'liq tashkil etilishini ta'minlanadi;

• yuk vagonlari va konteynerlarni taqdim etish hamda yuqori tezlikda harakatlanadigan va tezyurar poezdlarda yo'lovchilarni tashish xizmatlari tariflarini davlat tomonidan tartibga solish amaliyotidan voz kechib, ularni bozor tamoyillari asosida tartibga solish mexanizmiga o'tiladi;

• I guruh nogironligi bo'lgan shaxsga yoki 18 yoshgacha nogironligi bo'lgan bolaga, shuningdek, davolash muassasasining xulosasiga ko'ra o'zgalarning parvarishiga muhtoj bo'lgan 80 yoshga to'lgan qariyalarga qarab turishning haqiqiy holatlari ijtimoiy xodimlar tomonidan bir yilda bir marotaba o'rganiladi va o'rganish ma'lumotlari "Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimi orqali yuritib boriladi. Bunda "Ijtimoiy himoya" ATdagi qarab turishning haqiqiy holatlari to'g'risidagi elektron ma'lumotlar qarab turgan shaxsga pensiya tayinlashda ish stajiga kiritish uchun asos hisoblanadi;

• tramvay hamda trolleybusda yo'lovchi tashish uchun yo'lkira haqini to'lashning avtomatlashtirilgan tizimi joriy etiladi;

• O'simliklar karantini va himoyasi agentligi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Paxtachilik kengashi mutaxassislari nazorati ostida tajriba-sinov tariqasida yuqori hosildor xorijiy g'o'za navlari va duragaylarini olib kirish hamda paxta-to'qimachilik klasterlari va fermer xo'jaliklari tasarrufidagi paxta ekiladigan maydonlarning 10 foizigacha joylashtirishga, istisno tariqasida, ruxsat beriladi;

• aholi punktlarida barcha yangi qurilayotgan ikki va undan ortiq polosali avtomobil yo'llarida piyodalar o'tish yo'laklarini svetoforlar bilan to'liq jihozlash majburiy etib belgilanadi.

**Zamin.uz**

SPORT

# SHUKURJON SHUXRAT O'G'LI ABDURAXIMOV G'OLIBLIKNI QO'LGA KIRITDI




"Farg'onaazot" aksiyadorlik jamiyatida xizmat ko'rsatayotgan O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi Farg'ona viloyati Qo'riqlash boshqarmasi Alohida Bataloni 3-otryad safdor xodimi Shukurjon Shuxrat o'g'li Abduraximov yurtimizda tashkil etilgan aralash jang ATFS (Amir Temur Fighting championship) bo'yicha xalqaro turnirida ishtirok etib birinchi rauntning to'rtinchi daqiqasida Rossiyalik jangchi Shamil Ismoilovni muddatidan avval nakaunt bilan yengib, g'oliblikni qo'lga kiritib O'zbekiston Respublikasi bayrog'ini balandga ko'tardi.

**O'z muxbirimiz**



# СЛОВО ОБ ЭНЕРГЕТИКАХ

Кто дарит нам свет, воду и пар? Кто обеспечивает надёжное энергоснабжение завода? Кто растит уникальных специалистов? Речь о наших коллегах энергетиках. На сегодняшний день в подчинении отдела главного энергетика находятся цех электроснабжения, цех централизованного ремонта электрооборудования, цех водо-парораспределения и промышленной канализации, цех внешнего водоснабжения. Именно благодаря усердному труду десятков рабочих и служащих этих цехов обеспечивается стабильная работа нашего предприятия. Как бы не именовались их профессии, будь то электромонтёры, машинисты, слесаря или обходчики все они заняты в энергетической сфере, а потому гордо называют себя энергетиками. Энергетики своим трудом, днём и ночью обеспечивают завод так необходимыми для производства ресурсами – водой, паром и светом. Сотрудники выше перечисленных цехов в конце года отмечают важную дату: 22 декабря, День энергетика.

По заданию редакции газеты «Кимёгар» на кануне Дня энергетика, было решено посетить цеха и взять интервью у людей, которые непосредственно обеспечивают предприятие электроэнергией, паром и водой.








### ЦЕХ ЭЛЕКТРОСНАБЖЕНИЯ

Всё вокруг нас нуждается в энергии, поэтому специалисты из цеха электроснабжения незаменимы. Их задачи – принять и распределить электроэнергию, оперативно устранить неполадки, поддерживать работу всех производств и служб на заводе. В каждом цехе есть свой энергетик, но цех электроснабжения – «голова». С неё и начнём. Входим в административный корпус и сразу ощущаем предпраздничную атмосферу: на окнах мерцают электрические гирлянды, ёлка искрится игрушками и мишурой. О том чем живёт и чем дышит цех, какие задачи выполняет лучше спросить у заместителя начальника цеха Шавкатжона Ёрматова. Шавкатжон Мамуржонович, расскажите пожалуйста читателям нашей газеты о руководимом вами цехе.

- Цех знаю хорошо, понимаю, как работают все его службы, как взаимодействуют со смежными цехами, агрегатами. Всё это мне знакомо, многое изучил в начале своей карьеры как говорится собственными руками ощутил. В цехе электроснабжения в настоящее время работают более 210 квалифицированных, имеющих большой стаж работы сотрудников. В обслуживании цеха находится высоковольтное и низковольтное оборудование основных технологических цехов, одних подстанций - более ста. Я по долгу службы осуществляю контроль за своевременным выполнением графиков ППР, текущей эксплуатацией и капитальным ремонтом электрооборудования. У каждого сотрудника цеха имеются свои обязанности, и как заместитель начальник цеха я должен внятно поставить задачу каждому и грамотно задействовать персонал. Сегодня актуальным вопросом повестки дня является энергосбережение и использование альтернативных источников энергии. Для тех же целей на заводе усовершенствуется система освещения – поэтапно заменяются светильники на энергоэффективные, устанавливаются солнечные батареи и солнечные коллекторы. Данные установки на альтернативных источниках энергии требуют грамотной эксплуатации поэтому сейчас формируется бригада из числа специалистов прошедших курсы обучения. Коллектив цеха электроснабжения — это большая дружная семья, среди соратников с которыми мы плечом к плечу трудимся многие годы я могу выделить следующих работников цеха: это электромонтёры по ремонту электрооборудования Абдували Омонов, Шавкат Каримов, мастера смены подстанций №1 Махмуджон Давронов, мастер смены подстанций №70 Кахромонжон Асронов. Отличительной чертой вышеперечисленных работников является ответственное отношение к работе, выполнение заданий качественно и в срок, непрерывная работа над собой и вследствие чего повышение профессионального мастерства и квалификации.

— Сегодня эти работники, своим многолетним самоотверженным трудом являются не только образцом для молодого поколения энергетиков, но и наставниками молодёжи передавая им свой бесценный опыт, — подытожил свои слова Ш. Ёрматов.

### ЦЕХ ВОДО-ПАРОРАСПРЕДЕЛЕНИЯ И ПРОМЫШЛЕННОЙ КАНАЛИЗАЦИИ

Следующий цех, который мы посетили был цех водо-парораспределения и промышленной канализации. Как известно осенне-зимний период для работников этого цеха особая пора, ведь именно от их работы зависит штатная работа всего производства. С 2021 года цех возглавляет молодой и энергичный руководитель Зафаржон Исакович Гаффоров. Знакомя нас с цехом Зафаржон Исакович рассказал, что обеспечение бесперебойное работы системы паротеплоснабжения и промышленной канализации в таком крупном промышленном предприятии как АО «Farg‘onaazot» имеет большое значение.

- В столь ответственном деле от профессионализма и слаженности работы всего трудового коллектива цеха зависит бесперебойная работа всего предприятия. Непосредственными моими помощниками в этом деле являются заместитель начальника цеха Розикжон Эрмухаммедов, энергетик цеха Давронбек Баннафов, механик цеха Отабек Саидов. Сегодня в цехе трудятся 90 специалистов, из них в энергетической службе цеха трудятся 9 работников, в механической службе цеха 12 работников. На участке паро-тепло снабжения работают 12 работников непосредственное руководство над которыми осуществляет старший мастер Хамидулло Махмудов, на участке АВР первой промышленной площадки осуществляют свою деятельность 11 работников во главе со старшим мастером Шерали Ахмедовым, на участке АВР второй промышленной площадки работают 12 работников под началом старшего мастера Хамидулло Усупбекова.

Также необходимо особо отметить деятельность сменного персонала. Сейчас 4 смены осуществляют свою деятельность по бесперебойной работе систем паро-теплооснабжения и промышленной канализации. Каждая смена состоит из семи работников и мастеров смен. Все без исключения мастера смен, а это Илхом Халилов, Абдукаххор Тожирахмонов, Улмасжон Мирзаев, Комолдин Содиков, Музаффар Юлдашев — это опытные работники имеющие большой стаж работы – отметил в конце начальник цеха Зафаржон Гаффоров.

### ЦЕХ ВНЕШНЕГО ВОДОСНАБЖЕНИЯ

Ещё один цех, который мы посетили был цех внешнего водоснабжения, это сравнительно молодой цех, выделенный из состава цеха ВПС и ПК в 2022 году. Сегодня цехом руководит Журабек Рузибоев, в этом ему помогает заместитель начальника цеха Файзуллохон Шоалимов. Рассказывая о выполняемой работе и о коллективе цеха, Журабек Рузибоев сказал следующее:

- На сегодняшний день наш цех обслуживает 35 скважин Аввальского водозабора, 16 скважин Ферганского городского водозабора, 5 артезианских скважин Беш-болинского водозабора. И в этой связи необходимо особо отметить деятельность сменного персонала, так сейчас 4 смены осуществляют свою деятельность по бесперебойной работе водопроводных сетей. Руководят сменами опытные мастера Жахонгир Юлдашев, Абдуллажон Тожалиев, Ботирали Хакимов, Рахим Мўйдинов, Павел Коврижник. Как видите столь большое хозяйство расположено на значительном удалении от предприятия и требует соответствующего обслуживания. В настоящее время в цехе работают 100 сотрудников, они выполняют своевременный ремонт, монтажные и демонтажные работы, а также осуществляют обслуживание всех типов насосов, запорной арматуры, водомерных приборов первого и второго подъёмов, кроме того, осуществляют ремонт и частичную замену магистральных водопроводных труб. Также необходимо особо отметить работу механика Элмурода Болтабоева, мастеров Дилшода Мамасолиева, Рифата Асанова, Мурода Кенжаева, Ботирали Козиева, Максима Дерябина, энергетика Иномжона Ахмаджонова, мастера по ремонту электрооборудования Хамидуллы Азимова, без их деятельного участия не обходится ни одна из выше перечисленных работ. В случае возникновения аварийной ситуации на водопроводах силами ремонтных бригад оперативно устраняются утечки воды и другие неполадки, в их распоряжении имеются специальная техника, в частности трактор, водяной насос, сварочный агрегат и другое оборудование, также для рабочих предусмотрена специальная непромокаемая одежда.

Коллективы цехов о которых шло повествование в этой статье дружные, и ко Дню энергетика относятся с особым чувством. Празднуют сразу две даты – профессиональный праздник и Новый год. По традиции собираются в комнатах духовности и просветительства, где и поздравляют друг друга. 22 декабря – самый короткий день в году и самая длинная ночь, то есть время, когда заслуги энергетиков наиболее заметны, а труд – востребован.

**С ПРАЗДНИКОМ, КОЛЛЕГИ!**
**Дилшод Самидович ИСМОИЛОВ,**
**главный энергетик:**

**– Дорогие коллеги, сотрудники отдела главного энергетика, рабочие и инженерно-технические работники цеха электроснабжения, цеха централизованного ремонта электрооборудования, цеха водо-парораспределения и промышленной канализации, цеха внешнего водоснабжения, поздравляю вас с Днём энергетика и с наступающим Новым 2024 годом! Ежедневно мы с вами обеспечиваем завод необходимыми ресурсами – водой, паром и светом. Спасибо вам за плодотворную работу. В этот день желаю вам самых тёплых эмоций, новых решений в работе, воплощения энергии в вашем труде. Здоровья и благополучия, коллеги!**

# ИГРЫ «ЗАКОВАТ» СПОСОБСТВУЮТ СОЗДАНИЮ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ И КУЛЬТУРНОЙ СРЕДЫ НА ПРЕДПРИЯТИИ

**Сегодня интеллектуальная игра «Заковат» стала популярна среди всех слоёв населения, но особой популярностью пользуется среди молодёжи. И эта тенденция не может не радовать, потому как основная часть быстрорастущего населения нашей страны составляет молодёжь и за ними будущее. Понимая это правительством нашей страны принимаются меры, направленные на развитие талантов, дарований и способностей молодёжи, повышение их интеллектуального потенциала и поддержку их интересов. И в этой связи необходимо отметить что принятое Президентом Республики Узбекистан Постановление «О мерах по превращению интеллектуальной игры «Заковат» в массово-просветительское движение среди населения и развитию других интеллектуальных игр» создало условия, способствующие интеллектуальному и духовному развитию молодежи, а также стало одним из инструментов развития массово-просветительской деятельности.**

Участие в подобных играх становится престижной для многих молодых людей. Оно способствует развитию мышления и расширению кругозора. Важность подобных интеллектуальных игр заключается ещё и в том, что посредством проведения данных игр можно поддерживать и развивать умственные способности участников, а также вдохновлять их на дальнейшее углубление знаний.

Проведение интеллектуальных соревнований «Заковат» стало традицией и на нашем предприятии, так очередная игра, приуроченная к 31 годовщине со дня принятия Конституции Республики Узбекистан, состоялась 5 декабря текущего года.

Целью проведения данной игры была реализация постановления главы нашего государства по популяризации интеллектуальных игр, а также повышение интеллектуального потенциала работников предприятия и расширение их кругозора.

Очередная игра «Заковат» отличалось массовостью, так как в ней принимали участие команды со всех структурных подразделений общества. Необходимо отметить что команды были очень хорошо подготовлены, а потому между ними разгорелась настоящее состязание интеллектуалов. В результате бескомпромиссной борьбы, сильнейшими командами были признаны:

команда цеха «Аммиак-3» которая по праву заняла 1-место;

команда Производственно–технического управления заняла 2-место;

команда цеха Электроснабжения заняла почётное 3-место.

Поздравляем всех участников интеллектуальной игры «Заковат» с успешным проведением игр. Желаем им удачи и дальнейшего интеллектуального роста.

Церемония награждения победителей состоялась 7 декабря в канун празднования Дня Конституции Республики Узбекистан, в стенах Ферганской областной Филармонии, где в праздничной обстановке были вручены дипломы и денежные сертификаты.

**Как известно с 15 ноября по 15 декабря 2023 года в нашей стране проводится «Месячник пожарной безопасности». В этот период во всех учреждениях, ведомствах, организациях и предприятиях страны проводятся мероприятия, направленные на обеспечение пожарной безопасности.**



# РАБОТНИК НАШЕГО ОБЩЕСТВА ЗАСЛУЖЕННО НАГРАЖДЁН

13 декабря на нашем предприятии также состоялся семинар, посвящённый обеспечению пожарной безопасности. На семинаре принимали участие руководители структурных подразделений общества, инженерно-технические работники. Для участия на семинаре были приглашены начальник отдела организации и обеспечения пожарной безопасности на особо важных категорированных объектах областного управления МЧС, майор Илхомжон Нишонов, главный инспектор отдела по организации пожарного контроля и профилактики областного управления МЧС, майор Абдухошим Тожибоев, начальник пресс-службы областного управления МЧС, капитан Ахлиддин Алижонов, начальник отдела промышленной безопасности ООО "HUDUDGAZ FARG‘ONA" Ахроржон Анорбоев, специалист АО «Ферганское предприятие территориальных электрических сетей» Дилшод Кодиров.

Семинар открыл со вступительной речью начальник управления ОТ, ТБ, ООС и ПБ ОПО предприятия Файзулло Абдурахманов. В частности, Файзулло Абдуллаевич проинформировал участников семинара об организации профилактической работы по обеспечению пожарной безопасности на предприятии.

Затем слово было предоставлено гостям семинара. Так майор областного управления МЧС Абдухошим Тожибоев рассказал о произошедших в Ферганской области за истекший период пожарах и связанных с ними несчастных случаях, привёл конкретную статистику.

Далее согласно программы семинара выступил представитель ООО "HUDUDGAZ FARG‘ONA" Ахроржон Анорбоев, который в своём докладе подробно изложил участникам семинара правила пользования газовым оборудованием, кроме того рассказал, как необходимо содержать дымоходы бойлеров и печей.

В рамках данного мероприятия были показаны подготовленные видео ролики демонстрирующие, как пользоваться первичными средствами пожаротушения и как действовать при обнаружении пожара и задымлении в помещениях, а также розданы наглядные материалы, пропагандирующие соблюдение правил пожарной безопасности как на рабочих местах, так и в быту.

В конце семинара слово было дано начальнику отдела областного управления МЧС, майору Илхомжону Нишонову, который подводя итоги мероприятия, дал высокую оценку проводимой в АО «Farg‘onaazot» работе по профилактике пожарной безопасности и вопросу оснащения средствами пожарной безопасности. Также докладчиком было отмечено, что проведение учений и семинаров по пожарной безопасности является свидетельством того большого внимания, которое уделяется реальной безопасности сотрудников, полученные знания, навыки, в чрезвычайной ситуации могут спасти чью-то жизнь - констатировал докладчик.

В завершение мероприятия ведущему инженеру управления ОТ, ТБ, ООС и ПБ ОПО акционерного общества «Farg‘onaazot» Фазлиддину Сотибалдиеву была вручена почетная грамота и памятный подарок Управления по чрезвычайным ситуациям Ферганской области за заслуги по предупреждению чрезвычайных ситуаций и пожарной безопасности.

**Отабек БЕГИДЖАНОВ.**

# 8 ДЕКАБРЯ – ДЕНЬ КОНСТИТУЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН!




**7-декабря в Ферганском областном территориальном отделении Государственной Филармонии состоялся праздничный концерт, посвящённый 31-ой годовщине со дня принятия Конституции Республики Узбекистан.**

Торжества, посвящённые Дню Конституции, широко отмечаются во всех ведомствах, учреждениях и организациях нашей страны. В акционерном обществе «Farg‘onaazot», также состоялось праздничное мероприятие с участием руководства и трудового коллектива предприятия.

Праздничные торжества открылись под звуки Государственного Гимна Республики Узбекистан.

Затем с поздравительной речью выступили председатель правления АО «Farg‘onaazot» Дилшод Эркинович Маннонов, главный финансовый директор Shailesh Deokumar Jain. Поздравительные речи руководителей предприятия были проникновенными и эмоциональными, и не оставили равнодушными никого из участников праздничного мероприятия.

Далее согласно праздничной программе состоялась церемония награждения цехов, признанных лучшими в духовно-просветительской работе. Так дипломом I-степени и денежным сертификатом в 5 миллионов сум был удостоен цех Централизованного ремонта оборудования, дипломом II -степени и денежным сертификатом в 4 миллионов сум был удостоен цех по производству Мочевины, дипломом III-степени и денежным сертификатом в 3 миллионов сум был удостоен Ремонтно-механический цех. Также в этот день состоялось чествование команд победителей интеллектуальной игры «Заковат». Так дипломом I-степени и денежным сертификатом в 5 миллионов сум была удостоена команда цеха «Аммиак-3», дипломом II-степени и денежным сертификатом в 3 миллионов сум был удостоена команда Производственно –технического управления, дипломом III-степени и денежным сертификатом в 2 миллионов сум была удостоена команда цеха Электроснабжения.

В этот день особую праздничную программу подготовил творческий коллектив Ферганской областной Филармонии, на песни и танцы которых живо отзывался зал своими плясками. Юмористические номера участников КВН и известного юмориста Абдурахмона Сиддикова добавили ещё большую атмосферу праздника сегодняшнему мероприятию.












# ДЛЯ РАБОТНИКОВ ПРЕДПРИЯТИЯ БЫЛ ОРГАНИЗОВАН НОВОГОДНИЙ ПРАЗДНИК

**Новый год для работников АО «Farg‘onaazot» один из самых любимых и ожидаемых праздников. По традиции перед праздником нового года во всех структурных подразделениях общества начинается подготовка к празднествам и этот год также не стал исключением. Сегодня на проходных пунктах предприятия, возле корпусов цехов и административных зданий украшены ёлки, электрические гирлянды и иллюминации с символами нового года, которые дарят заводчанам праздничное настроение.**

Кульминацией новогоднего праздника стал состоявшийся 26 декабря, во дворце торжеств «Сарбон» праздничный вечер, организованный руководством и профсоюзным комитетом для работников предприятия. В этот день передовики производства, рабочие и служащие одетые в нарядные одежды, в приподнятом настроении прибыли на место проведения праздничного мероприятия. Во дворце торжеств «Сарбон» был приготовлен праздничный стол для более чем 400 работников предприятия.

Перед началом торжественного мероприятия с поздравительной речью к работникам предприятия обратились председатель правления АО «Farg‘onaazot» Дилшод Маннонов и глава Евразийского направления Indorama Corporation Pte Ltd господин Рахул Сингх. Искренние слова поздравления по случаю нового года звучавших из уст, выступавших были тепло встречены участниками празднества.

Праздничная программа, подготовленная известными эстрадными исполнителями и танцевальными коллективами Ферганы, добавила ещё большую атмосферу праздника и хорошего настроения участникам торжеств. Звучавшие в этот день зажигательные песни никого не оставили равнодушными.

# ЗАВОДСКАЯ МНОГОТИРАЖКА ОТМЕЧАЕТ СВОЙ ЮБИЛЕЙ!

**45-летний юбилей заводской газеты АО “Farg‘onaazot”, которая последние 32 года носит название “Кимёгар”, событие не просто историческое, но и в какой-то мере знаменательное. Столь старого по возрасту издания заводской газеты в городе, да и по всей области, наверное, сегодня трудно отыскать. Как у любого другого периодического издания, у газеты “Кимёгар” есть своя история и свои традиции. Инициаторами издания заводской многотиражки в своё время выступили директор Ферганского завода азотных удобрений (так в конце 70-х годов назывался АО “Farg‘onaazot”-прим. редактора) Саттор Якубов и секретарь первичной партийной организации Туланбой Хамдамов. В становлении газеты большую роль сыграли журналисты газеты «Коммуна» (ныне «Фарғона ҳақиқати») Вогиз Музаффаров, Акрам Камбаров, с ними руководство предприятия обсуждало вопросы связанные с названием газеты, темы публикуемых материалов, привлечение авторитетных авторов и многие другие организационные вопросы, связанные с будущей газетой. Учитывая, что на предприятии трудится многонациональный коллектив было решено издавать газету на русском и узбекском языках.**


Пролетарии всех стран, соединяйтесь!

ХИМИК

НАС ПОЗДРАВЛЯЮТ!

партийному, комсомольскому, профсоюзному комитетам, администрации Ферганского завода азотных удобрений

ДОРОГИЕ ТОВАРИЩИ!

ФЕРГАНСКИЙ ГОРОДСКОЙ КОМИТЕТ

С Новым годом, дорогие товарищи!

НАВСТРЕЧУ



Отрадно что ровно 45 лет тому назад 1 января 1979 года был выпущен первый номер заводской многотиражки «Кимёгар». Беря с благоговением в руки этот номер пожелтевший со временем газеты, интересно узнать о чём писали тогда. Так в первом номере были напечатаны поздравления редакций газеты «Коммуна» и «Ферганская правда», статьи директора завода С. Якубова, начальника цеха аммиачного производства М. Нишонова, депутата Л. Муравлёвой, начальника цеха регенерации уксусной кислоты М. Махмудова.

Сейчас по прошествии 45 лет можно смело утверждать, что на страницах газеты в той или иной мере отражены этапы развития не только предприятия, но и этапы развития всей химической промышленности Узбекистана. Многотомные подшивки, хранящиеся в заводской библиотеке, являются свидетельством событий тех лет. Газета «Кимёгар» всегда была актуальна, рассказывала своим читателям чем живёт трудовой коллектив предприятия, об успехах и проблемах, о лучших людях и знаменательных событиях. Корреспонденты газеты в своих статьях старались освещать все стороны многогранной жизни одного из крупнейших предприятий химической промышленности Узбекистана, для этого затрачивалось много творческих сил и энергии. И в этой связи необходимо упомянуть Акрама Камбарова, Алесандра Орешкина, Абдусалома Эргашева, Тухтасина Азимова, Исроилжона Иброхимова, Музаффара Маматкулова и Рустама Мамажонова, которые в разные годы, осуществляли редакторскую деятельность в газете «Кимёгар». С 2021 года редактором назначена Эъзозхон Абдуллаева. В настоящее время редакция работает под её руководством. Продолжая славные традиции своих предшественников, сохраняя всё то хорошее, интересное чем радовала заводчан всё это время газета редакция сегодня на страницах газеты старается освещать передовой опыт труда, методы повышения эффективности производства, экономии материальных ресурсов, рост производительности труда и многие другие вопросы. На современном этапе развития информационно-коммуникационных технологий, помимо традиционных средств распространения печатной продукции, активно задействован Интернет, так на странице официального сайта предприятия своевременно публикуется электронная версия газеты. Это способствует увеличению числа читателей газеты. На сегодняшний день в газете трудятся корреспондент Отабек Бегиджанов и фотокорреспондент Миржалол Гуломназиров.

**Материалы 3-й и 4-й полос подготовил Отабек БЕГИДЖАНОВ.**

Kimyogar

MUASSIS:
«Farg`onaazot»
aksiyadorlik jamiyati

ISSN 2010-9830

Bosh muharrir:
E’zozxon ABDULLAYEVA.

Manzil: 150108,
Farg‘ona shahri,
Sanoat ko‘chasi, 222.
«Farg‘onaazot» AJ.
Tel.: 242-66-01; 65-33

*Gazeta Farg‘ona viloyat matbuot va axborot boshqarmasida 2007-yil 7-mayda 12-082 raqami bilan ro‘yxatga olingan.*

**Gazeta «Poligraf-Press» MCHJ bosmaxonasida 2000 nusxada ofset usulida chop etildi.**
Bosmaxona manzili: Marg‘ilon shahar, Turkiston ko‘chasi 236 «B» - uy. Qog‘oz bichimi A-2. Buyurtma: ____-son.

Bosmaxonaga topshirish vaqti: soat 9:00. Bosishga ruxsat etildi: soat 11:00. 28.12.2023-yil.
**Ushbu songa mas’ul: E’zozxon ABDULLAYEVA.**
**Rasmlar muallifi: Mirjalol G‘ULOMNAZIROV.**

*Ushbu gazeta «Farg‘onaazot» AJ ishchi-xodimlariga bepul tarqatiladi.*